ROMAN MARKAZIGA QO‘YILGAN MUAMMO: MUXOLIFAT

Sharafiddinova Nodira Xursandovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Farg‘ona davlat universiteti
akademik litseyi o‘qituvchisi
Elektron pochta: Nodish@gmail.com

Annotatsiya:
Mazkur maqolada Nabijon Boqiyning “Madfun Turkiston” romanida muxolifat fenomenining badiiy-hujjatli talqini tahlil etiladi. Tadqiqotda muxolifatning siyosiy va ijtimoiy-falsafiy mohiyati nazariy yondashuvlar asosida yoritilib, uning adabiy matndagi funksional roli ochib beriladi. Roman voqeligida muxolifat turli tarixiy sharoitlarda shakllangan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida talqin etilgani ko‘rsatib beriladi.
Kalit so‘zlar: *muxolifat, oppozitsiya, hujjatli roman, siyosiy tafakkur, tarixiy jarayon, ijtimoiy ong, badiiy talqin.*

Abstract
This article analyzes the artistic-documentary interpretation of the phenomenon of opposition in Nabijon Boqiy’s novel Madfun Turkiston. The study examines the political, social, and philosophical essence of opposition through theoretical approaches and reveals its functional role within the literary text. It is demonstrated that, in the reality depicted in the novel, opposition is interpreted as a complex social phenomenon formed under various historical conditions.
Keywords: *opposition, political opposition, documentary novel, political thought, historical process, social consciousness, artistic interpretation.*

KIRISH

Muallif roman ”Debocha” sida muxolifat mavzusida “haqqoniy kitob yozishga qaror” (1,7) qilganligini ta’kidlaydi muxolifatni hukmron tuzum vujudga keltiradi, “har qanday muxolifatning doyasi mavjud siyosiy tuzumdir” (1,8) degan qat’iy konsepsiyaniqo‘yadi.

Muxolifat o‘zi nima?

Bu so‘z quyidagicha izohlanadi: lug‘aviy ma’nosi – “kelishmovchilik, teskarilashish; huquqbuzarlik; itoat qilmaslik. Terminologik ma’nosi– rasmiy hukumat va uning siyosati bilan kelishmay, boshqacha siyosiy yo‘l tutib, amaldagi qonunlar doirasida faoliyat yuritish.” Muxolif esa “qarama-qarshi fikrda bo‘lgan, qarshi chiquvchi, qarshi.” (3, 300)

Hozirgi davlatchilik va siyosatda lotin tilidan o‘zlashgan, qarshi qo‘yish, zid qo‘yish ma’nolaridagi oppozitsiya so‘zi ham terminologik ma’noda – o‘z qarashlari va siyosatini boshqa bir qarash va siyosatga qarshi qo‘yish ma’nosida qo‘llanadi.(2, 356)

Har qanday muxolifatning asosiy maqsadi hokimiyatni egallashdir. Bunda davlat boshqaruv shakli va mafkuraviy asosini o‘zgartirish ham ko‘zda tutilishi mumkin. Maqsadni amalga oshirish usullari ham, vaziyatga muvofiq holda, turlicha bo‘ladi. Davlat to‘ntarishi, turli inqilobiy, ijtimoiy-siyosiy kurashlar yo‘lini tutish keng tarqalgan usullardir. Shulardan kelib chiqilsa, muxolifatning ikki shakli namoyon bo‘ladi:

ijtimoiy-iqtisodiy tuzum va davlat boshqaruv tizimini o‘zgartirish shakli, siyosiy-mafkuraviy ustkurmani o‘zgartirish shakli. Bulardan birinchisi amalga oshirilganda, davlat boshqaruvining monarxiya, avtoritar-diktatura, parlamentar kabi shakllari vujudga keladi. Ikkinchisida davlat boshqaruvining ilohiylik, dunyoviylik shakllari vujudga keladi va siyosiy, huquqiy ong shakllarida, ahloq normalarida o‘ziga xos o‘zgarishlar yuzaga keladi. Shuningdek, muxolifatning fitna, yashirin harakatlar bilan bog‘lanuvchi intriga tipidagi mayda guruhbozlik ko‘rinishlari ham bor.

Tarixiy formatsiyalar muxolifat faoliyati va kurashlari natijasi tufayli vujudga keladi – o‘zgaradi, shakllanadi, barqarorlashadi. Ko‘rinadiki, muxolifat ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-falsafiy, ma’naviy-ma’rifiy qarashlardagi farqlanish asosida vujudga kelgan, o‘z tizimli dasturi bo‘yicha shakllangan ijtimoiy kuchlar birligidir. U davr va shu davr ijtimoiy tafakkuri asosida faoliyat olib boruvchi siyosiy tuzumdan tug‘iladi, shu siyosatga qarshi bo‘lgan qarashlar bilan yuzaga chiqadi va shu siyosiy tuzum bag‘rida shakllanadi. Lekin har qanday rivojlangan davlat siyosiy tuzumi muxolifat mavjud bo‘lishi va faoliyat olib borishini kafolatlamaydi. Muxolifat harakatlanishi uchun keng ma’nodagi madaniy jihatdan rivojlangan, ijodiylik erkin va hukmron bo‘lgan, demokratik tamoyillar amalda bo‘lgan jamiyat bo‘lishi shart. Shu jihatdan qaralganda, Turkiston va Buxoro davlatchiligida muxolifat shakllanishi qay darajada bo‘lgan, bunday tushuncha xalq ongida ham o‘z aksini topgan edimi? Muxolifat ijtimoiy-siyosiy kurashlar, g‘oyalarga asoslangan harakat tarzida anglab yetilganmi?

“Madfun Turkiston” romanida muxolifat, uning turli ko‘rinishlari va faoliyat-harakat yo‘llari, katta-kichik ko‘lamlari hujjatlar asosida tahlil va talqin etiladi.

Romanning “Oftobachi madrasasidagi eshon”, “Dukchi eshon va uning maslakdoshlari ”, “Huquqsiz mamlakat” qismlarida XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy davlatchilik va muxolifat hujjatlilikka muvofiq bo‘lgan realistic tarzda talqin etiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1.Boqiy N. Madfun Turkiston. – Toshkent. “Trust and Support”, 2023.
2.Словарь инностранных слов. – М., “Русский язык”, 1979.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. 3-jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.